

CHET TILINI O'RGATISHDA BLOOM KOGNITIV BOSQICHLARINING DIDAKTIK AHAMIYATI

Axmedov O'ktamjon O'roqovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Koreys filologiyasi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola chet tilini o'rgatish jarayonida Bloom kognitiv taksonomiyasi bosqichlarining didaktik ahamiyatini zamonaviy pedagogika nuqtayi nazaridan qayta talqin qiladi. Maqolada an'anaviy bilim-tushunish-qo'llash modeli bilan chegaralanib qolmay, kognitiv jarayonlarning chuqurlashuvi, o'quvchi tafakkurining metakognitiv faollashuvi va til kompetensiyalarining integrativ rivojlanishidagi o'rni ilmiy asosda yoritiladi. Maqolada Bloom bosqichlarining chet tili darslaridagi real ta'lim jarayoniga qo'llanish mexanizmlari, xususan, tilni tushunish, lingvistik analiz, ijodkorlikni talab qiluvchi kommunikativ topshiriqlar, yuqori darajadagi fikrlashni talab etuvchi tahliliy va sintez faoliyatlari bilan uzviy bog'liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta'lim muhiti, adaptiv o'qitish texnologiyalari va kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuvlar sharoitida Bloom taksonomiyasining yangi didaktik funksiyalari qayta ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, taksonomiyaning bosqichma-bosqich qo'llanishi o'quvchilarda nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki tilni mantiqan, tizimli va ijodiy o'zlashtirishga yordam beradigan yuqori darajadagi kognitiv strategiyalarni shakllantiradi.

Kalit so'zlar: Bloom taksonomiyasi, kognitiv bosqichlar, chet tili o'qitish metodikasi, metakognitiv rivojlanish, didaktik strategiyalar, yuqori darajadagi tafakkur, ta'lim texnologiyalari, kommunikativ kompetensiya, zamonaviy pedagogika, kognitiv jarayonlar.

KIRISH.

Zamonaviy ta'lim jarayoni o'quvchining faolligiga, mustaqil fikrlashiga, ijodiy yondashuviga va yuqori darajadagi kognitiv faoliyatga tayangan holda tashkil etilayotgan hozirgi davrda pedagogik jarayonni ilmiy asosda rejalashtirish hamda o'qitish samaradorligini oshirish masalasi o'ta dolzarb bo'lib bormoqda. Xalqaro til ta'limi metodologiyasida kognitiv jarayonlarni chuqur o'rganishga imkon beradigan, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich murakkablashtirish orqali yuqori darajadagi tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladigan Bloom taksonomiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. U nafaqat o'quv faoliyatini modellashtirish, balki chet tilini o'rgatishda bilimdan amaliyotga, amaliyotdan tahlilga, tahlildan esa ijodiy sintezga yo'naltirilgan ta'lim tizimini yaratish imkonini beruvchi samarali didaktik vosita sifatida baholanishi mumkin.

Chet tilini o'qitish jarayonida o'quvchi til birliklarini yod olish yoki matn mazmunini yuzaki tushunish bilan cheklanib qolmaydi. Til o'rganish jarayoni mohiyatan murakkab





intellektual faoliyat bo'lib, unda eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil qilish, baholash va yangi til materiallarini ijodiy qayta yaratish kabi kognitiv bosqichlar izchil tarzda namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, Bloom taksonomiyasi chet tilini egallashning psixolingvistik, lingvodidaktik hamda metodik asoslari bilan uyg'unlashgan holda o'quvchilarning kognitiv rivojlanishini izchil boshqarish imkonini beradi.

Bugungi globallashtirish sharoitida chet tili ta'limi faqat grammatik me'yorlar yoki lug'at boyligini o'zlashtirish demak emas, balki o'quvchini kommunikativ, madaniyatlararo, sotsiolingvistik va nutqiy kompetensiyalarga ega mustaqil subyekt sifatida shakllantirishni talab etadi. Shu ma'noda Bloom taksonomiyasi an'anaviy bilim berish modelidan farqli ravishda o'rganilayotgan til materialini funksional vaziyatlar orqali ongli va faol qayta ishlashni, talabaning fikrlash strategiyalarini shakllantirishni, mantiqiy mushohada yuritishni, ijtimoiy-kommunikativ vazifalarni mustaqil hal etishni ko'zda tutadi. Aynan shuning uchun ham ko'plab xorijiy ta'lim tizimlarida Bloom kognitiv bosqichlari til o'qitishda o'quv dasturlarining asosiy konstruktiv modeli sifatida qaralmoqda.

Chet tilini o'rgatishda Bloom taksonomiyasining qo'llanishi nafaqat o'qituvchi faoliyatini tizimlashtiradi, balki o'quvchining idrok jarayonlarini o'lchash, baholash va rejalashtirish imkonini ham kengaytiradi. Masalan, pastki darajadagi kognitiv faoliyat — yodlash va tushunish — grammatik qoidalar, so'z ma'nolari, talaffuz me'yorlarini o'zlashtirishda muhim bo'lsa, yuqori darajadagi bosqichlar — tahlil, baholash, yaratish (sintez) — matn ustida ishlash, argumentativ fikrlash, ijodiy yozuv, og'zaki muloqotda erkin xulosa chiqarish kabi kompetensiyalarni shakllantiradi. Bu jarayonlarning barchasi tilni chuqur, integrativ va barqaror o'zlashtirishning poydevorini yaratadi.

Shu bilan birga, Bloom taksonomiyasining didaktik ahamiyati uni chet tilini o'qitish texnologiyalariga uyg'unlashtirish bilan yanada kuchayadi. Digital resurslar, interaktiv platformalar, kompetensiyaga asoslangan baholash tizimlari, kommunikativ metodika va muammoli o'qitish yondashuvlari bilan qo'shilganda, taksonomiya o'quvchining kognitiv faolligini yanada oshiradi va ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan, maqsadli, izchil va samarali qiladi. Natijada, chet tilini o'rganayotgan o'quvchilar nafaqat til birliklarini biladilar, balki ularni muloqotda, tahlilda, ijodiy fikrlashda erkin qo'llash kompetensiyasiga ega bo'ladilar.

Shu sababli, ushbu maqola chet tilini o'rgatishda Bloom kognitiv bosqichlarining didaktik ahamiyatini yangicha ilmiy-metodik yondashuvlar asosida tahlil qilish, uning o'qitish samaradorligiga ta'sirini asoslash, shuningdek, taksonomiyaga tayangan holda til o'rgatish jarayonini yanada takomillashtirish bo'yicha konseptual g'oyalar ishlab chiqishni maqsad qiladi. Mazkur yondashuv nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham o'qituvchilarga o'quv jarayonini samarali loyihalash, o'quvchilarning fikrlash darajasini izchil shakllantirish va chet tili ta'limining sifat ko'rsatkichlarini oshirish imkonini beradi.



Asosiy qism

Chet tilini o'rgatish jarayonida Bloom kognitiv bosqichlarining didaktik ahamiyatini yangi nuqtai nazardan izohlash zamonaviy ta'limning transformatsion mohiyatidan kelib chiqadi. Bugungi kunda o'quv jarayoni statik bilimlar tizimi emas, balki kognitiv jarayonlar, neyropsixologik mexanizmlar va shaxsning intellektual identiteti o'zaro ta'sir qiladigan murakkab konstruktiv muhit sifatida qaralmoqda. Shu bois Bloom taksonomiyasiga an'anaviy "darajalar zanjiri" sifatida qarash mohiyatini yo'qotmoqda; aksincha, u til kompetensiyasini quruvchi dinamik kognitiv spiral, o'quvchi ongida sodir bo'ladigan neyroplastik o'suv jarayonlarining intellektual modeli sifatida talqin etilishi zarur.

Bloom taksonomiyasining "eslab qolish-tushunish-qo'llash-tahlil-sintez-baholash" bosqichlari amalda chiziqli emas, balki o'zaro uzviy bog'langan, bir-birini takror kuchaytiradigan jarayonlar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, chet tilini o'rganuvchi biror yangi grammatik konstruksiyani o'zlashtirayotganida, u avval bu bilimni eslaydi, so'ng kontekstdagi vazifasini tushunadi, nutqda qo'llaydi, matn ichidagi funksional o'rnini tahlil qiladi, yangi gaplar yaratish orqali sintez qiladi va o'zining to'g'ri yoki noto'g'ri ishlatganini baholaydi. Bu bosqichlar an'anaviy tartibda emas, balki ko'p marta qayta ishlanadigan spiral shaklida kechadi. Misol uchun, ingliz tilidagi "present perfect" yoki koreys tilidagi hurmat shakllari (-습니다, -세요) o'quvchidan faqat yodlashni emas, balki murakkab kognitiv tahlilni talab qiladi. Shu sababli Bloom taksonomiyasi til o'rganish jarayonida faollashadigan aqliy operatsiyalarni ifodalovchi neyrokognitiv algoritm sifatida namoyon bo'ladi.

Bloom bosqichlari o'quvchi shaxsining kognitiv identitetini shakllantiruvchi uch asosiy qatlamni vujudga keltiradi. Reproduktiv identitet darajasida o'quvchi chet tilidagi birliklarni yodlaydi, ularni tushunadi va mavjud bilimlarni takrorlaydi. Masalan, koreys tilini o'rganishda lotin transkripsiyasi orqali so'zlarni yodlash, alifboni o'zlashtirish, fe'l shakllarini yod olish aynan reproduktiv qatlamga kiradi. Operativ identitet bosqichida o'quvchi tilni qo'llash orqali grammatik va semantik mexanizmlarni anglaydi; masalan, o'quvchi koreys tilida -고 있다 va -아/어 있다 shakllarining farqi va ularning hozirgi davomiylik va holat davomiyligi ma'nolarini matn orqali tahlil qiladi. Uchinchi, kreativ-metakognitiv qatlam esa o'quvchining o'z fikrini ijodiy tarzda, yangi til birliklari orqali ifoda etish qobiliyatini shakllantiradi. Bu bosqichda o'quvchi matn yaratadi, baholaydi, o'z nutqini qayta ko'rib chiqadi va til tizimiga metakognitiv yondashuv hosil qiladi. Masalan, o'quvchi koreys tilida o'z blogini yuritish yoki suhbat jarayonida murakkab grammatik konstruksiyalarni mustaqil ishlatishi aynan metakognitiv bosqich mahsulidir.

Zamonaviy ta'limda Bloom taksonomiyasining o'rnini raqamli kompetensiyalar bilan uzviy bog'langan holda qayta talqin qilinmoqda. Axborot texnologiyalari keng





qo'llanilayotgan muhitda “eslab qolish” jarayoni raqamli lug'atlar, sun'iy intellekt vositalari, mobil kartochkalar orqali avtomatlashtiriladi. “Tushunish” bosqichi multimodal kontent yordamida kuchaytiriladi: video darslar, interaktiv simulyatsiyalar, talaffuzni tahlil qiluvchi dasturlar o'quvchining semantik anglash jarayonini osonlashtiradi. “Qo'llash” esa Quizlet, Kahoot, Duolingo kabi platformalar orqali real vaziyatlarda amaliy mashqlar yordamida mustahkamlanadi. “Tahlil” bosqichi korpus lingvistikasi, semantik tahlil dasturlari, grammatik analiz vositalari orqali yangi imkoniyatlarga ega bo'ladi. “Sintez” bosqichi interaktiv esse yozish, video yaratish, podkast tayyorlash orqali kengayadi, “baholash” bosqichida esa o'quvchining o'z-o'zini baholashi, refleksiya jurnallari va raqamli portfolio mexanizmlari metakognitiv fikrlashni rivojlantiradi. Natijada Bloom taksonomiyasi raqamli ta'lim muhitining intellektual markaziga aylanadi.

Bloom taksonomiyasining didaktik talqini uning faqat nazariy tasnif emas, balki o'quvchi fikrlash strategiyalarini shakllantiruvchi intellektual algoritm ekanini ko'rsatadi. Chet tili o'qituvchisi uchun Bloom modeli dars dizayni, kognitiv vazifalarni loyihalash, kompetensiyalarni bosqichma-bosqich rivojlantirishda asosiy metodik platforma hisoblanadi. Masalan, “baholash” bosqichiga qadar yetmagan o'quvchi monologik nutqda mustaqil ravishda fikr bildirsa olmaydi yoki “sintez” bosqichiga yetmagan o'quvchi grammatik qoidalardan tashqarida kreativ gaplar tuza olmaydi. Shu tariqa, Bloom modeli o'quvchining til kompetensiyasini mantiqan izchil, neyropsixologik jihatdan aniq yo'nalgan tarzda shakllantiradi.

Bloom taksonomiyasining neyrodidaktik talqini bugungi pedagogikaning eng muhim yangiliklaridan biridir. Har bir kognitiv bosqich miya faoliyatining turli hududlari bilan bog'liq: “eslab qolish” gipokamp faoliyatini kuchaytiradi, “tushunish” neyron tarmoqlarni integratsiyalash jarayonini faollashtiradi, “tahlil” mantiqiy bog'lanishlarda ishtirok etuvchi prefrontal korteksni rag'batlantiradi, “sintez” yangi neyron kombinatsiyalarni yaratadi, “baholash” esa metakognitiv monitoring, o'z fikrlash jarayonini boshqarish kabi yuqori darajadagi ong faoliyatlarini ishga soladi. Bu jarayonlar til o'rganishning nafaqat pedagogik, balki neyrobiologik asosga ega ekanini ko'rsatadi.

Til o'qitish jarayonida Bloom bosqichlari integrativ model yaratadi. Bu modelda lingvistik kompetensiya eslab qolish va tushunish orqali shakllanadi; kommunikativ kompetensiya qo'llash va sintez orqali namoyon bo'ladi; analitik kompetensiya tahlil orqali mustahkamlanadi; metakognitiv kompetensiya esa baholash orqali o'quvchi ongida chuqur o'rtnashadi. Masalan, koreys tilida rasmiy nutq shakllarini o'zlashtirish uchun avval ularni eslab qolish zarur, keyin vaziyatlar kontekstida tushunish, real nutqda qo'llash, boshqa shakllar bilan farqini tahlil qilish, o'z gapini mustaqil yaratish va nihoyat, ushbu shakllardan samarali foydalanish darajasini baholash talab etiladi.





Shunday qilib, Bloom taksonomiyasi chet tilini o'rgatishda oddiy tasnif emas, balki fikrlashni o'stiruvchi, kognitiv jarayonlarni faollashtiruvchi, o'quvchi shaxsining intellektual identitetini shakllantiruvchi transformatsion pedagogik mexanizm sifatida qayta talqin qilinadi. Til o'rgatishda bu model nafaqat o'quv materiali tuzilishini, balki tilni ongli ravishda yaratish, anglash va baholash jarayonini boshqaruvchi dinamik tizimdir.

Xulosa

Bloom kognitiv bosqichlari chet tilini o'rgatishda nafaqat bilimlarni tasniflovchi model, balki tilni ongli o'zlashtirishni tashkil qiluvchi faol kognitiv mexanizm sifatida qayta talqin qilinishi lozim. Zamonaviy ta'limda Bloom taksonomiyasi o'quvchi ongida bilim yaratish spiralini hosil qiladi, unda eslab qolish, tushunish, qo'llash, tahlil, sintez va baholash jarayonlari uzluksiz tarzda bir-birini to'ldiradi.

Raqamli vositalarning keng qo'llanilishi taksonomiyani yanada moslashuvchan, interaktiv va shaxsga yo'naltirilgan didaktik tizimga aylantiradi. Natijada o'quvchida lingvistik kompetensiya bilan bir qatorda analitik fikrlash, ijodiy nutq, metakognitiv ong va kommunikativ moslashuvchanlik keng rivojlanadi.

Shunday qilib, Bloom taksonomiyasining yangicha talqini chet tilini o'rgatishda chuqur fikrlashni shakllantirish, real nutqiy vaziyatlarda o'z fikrini mustaqil ifoda etish va tilni zamonaviy kommunikativ ehtiyojlarga mos ravishda o'zlashtirish imkonini beruvchi kuchli didaktik asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qosimova D., Yo'ldosheva Sh. Chet tillarini o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
2. Rahmonov D. Psixolingvistika asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Sodiqova N. Zamonaviy lingvodidaktika va chet tilini o'rgatishda innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2022.
4. Karimova M. Pedagogik psixologiya. – Toshkent: Nodirabegim nashriyoti, 2018.
5. Hamroyev A. Ta'lim jarayonida kognitiv strategiyalarni qo'llash. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2021.
6. Abdullayeva M. "Bloom taksonomiyasining zamonaviy talqini va chet tilini o'rgatish jarayonidagi roli." Til va adabiyot ta'limi, 2022, №3, 47–55-betlar.
7. Umarova S. Chet tili ta'limida innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti, 2020.

